# MUHANDISLIK & IQTISODIYOT

**№6**

*ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik, fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal*

**2025**
**IYUN**



Milliy nashrlar

**OAK:** https://oak.uz/pages/4802

*05.00.00 - Texnika fanlari*
*08.00.00 - Iqtisodiyot fanlar*

Google Scholar
OPEN ACCESS
ULRICHSWEB GLOBAL SERIALS DIRECTORY
Academic Resource Index ResearchBib
ISSN INTERNATIONAL STANDARD SERIAL NUMBER INTERNATIONAL CENTRE
CYBERLENINKA
OpenAIRE
ROAD
INDEX COPERNICUS INTERNATIONAL
BASE
Crossref
НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ БИБЛИОТЕКА eLIBRARY.RU




РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ

TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVERSITETI

TOSHKENT ARXITEKTURA-QURILISH UNIVERSITETI

*Elektron nashr,*
*434 sahifa, iyun, 2025-yil.*

# muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik, fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

**Bosh muharrir:**
**Zokirova Nodira Kalandarovna,** iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

**Bosh muharrir o'rinbosari:**
**Shakarov Zafar G'afforovich,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

**Tahrir hay'ati:**
**Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich,** O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Sharipov Kongratbay Avezimbetovich,** texnika fanlari doktori, professor
**Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Shaumarov Said Sanatovich,** texnika fanlari doktori, professor
**Turayev Bahodir Xatamovich,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Nasimov Dilmurod Abdulloyevich,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Allayeva Gulchexra Jalgasovna,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Arabov Nurali Uralovich,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Xamrayeva Sayyora Nasimovna,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Bobonazarova Jamila Xolmurodovna,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Irmatova Aziza Baxromovna,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor,
**Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
**Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
**Amanov Otabek Amankulovich,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
**Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li,** texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
**Qurbonov Samandar Pulatovich,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
**Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
**Tabayev Azamat Zaripbayevich,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
**Sxay Lana Aleksandrovna,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
**Ismoilova Gulnora Fayzullayevna,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
**Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
**Kasimova Nargiza Sabitdjanovna,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
**Kalanova Moxigul Baxritdinovna,** dotsent
**Ashurzoda Luiza Muxtarovna,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
**Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
**Sharipov Botirali Roxataliyevich,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
**Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
**Bauyetdinov Majit Janizaqovich,** Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD
**Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li,** Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
**Sultonov Shavkatjon Abdullayevich,** Kimyo fanlari doktori, (DSc)
**Jo'raeva Malohat Muhammadovna,** filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

# muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
05.01.07 – Matematik modellashtirish
05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
05.04.01 – Telekommunikasiya va kompyuter tizimlari, telekommunikasiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 – Makroiqtisodiyot
08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 – Ekonometrika va statistika
08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 – Marketing
08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 – Menejment
08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ
Hamkorlarimiz:
1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti

# MUNDARIJA

Ways to Strengthen the Economy of Karakalpakstan ........ 12
**Isakov Janabay Yakypbayevich**

Sanoat korxonalarida ishlab chiqarish xavf-xatarlarini iqtisodiy baholash ........ 18
**Raxmatova M.G., Saidjonova Z.B**

Strategy For Attracting Investments By Expanding the Participation of Joint-Stock Companies in the Securities Market ........ 23
**Aytmuratova Ulbike Jalgasovna, Kutlymurat Zhalgasovich Aytmuratov, Raushan Nurlybay qizi Umirzakova**

O‘zbekistonda eksportni sug‘urtalash mexanizmlari: mavjud holat va takomillashtirish yo‘llari ........ 29
**D.E.Qarshiev**

Ta’lim, ekologiya va raqamlashtirish sohalarida bolalar va o‘smirlar turizmini integratsiyalash: xalqaro tajribalar va O‘zbekiston ........ 35
**Islomova Dilrabo Salomovna**

Oliy ta’lim muassasalarida xodimlarning mehnat samaradorligini oshirishda rahbarlarning roli ........ 40
**Reyimberdiyev Baburbek Adilbek o‘g‘li, Yusupov Sherzodbek Baxtiyor o‘gli, Xaitbayev Jasurbek Otaxanovich, Madraimov Xabibulla Madaminovich**

Обзор по теме Современные системы управлением возбуждение синхронных машин и перспективы их развития ........ 47
**Алиев Аброр Мураткулович**

The Mechanism for Applying Tax Benefits and Preferences in Tax Administration ........ 52
**Dilorom Mutalova**

Innovatsiyalarning ahamiyati va ularning iqtisodiy samaradorligining o‘zbekiston qishloq xo‘jalik mahsulotlarini qayta ishlashdagi roli ........ 57
**Raximov Baxromjon Ibroximovich, Solohiddinov Nuriddin Sirojiddin o‘g’li**

Bino va inshootlarni zilzilabardoshligiga oid nazariyalar ........ 62
**Jalilov Ahmadbek Ikromjon o‘g‘li**

Soliq to‘lovchilarning majburiyatlari bajarilishini konseptual asoslari va shartlari asoslari xususida ........ 66
**Abdusherozov Abdullo Baxtiyorovich**

The Analysis of the Psychophysiological Condition of Children With Mental Disorders and the Creation of Comfort Through Designed Clothing ........ 73
**Asatilaeva Lola Muratjon qizi, Muminova Umida Tokhtasinovna**

Analysis Types of Waterproof Fabrics and Their Physical and Mechanical Properties ........ 80
**Pulatova Laziza Bakhodirovna, Kasimova Aziza Bakhodirovna**

Kichik biznes subyektlarining eksport salohiyatidan foydalanish darajasi va uni oshirish omillari ........ 85
**Umarkulov Kodirjon Maxamadaminovich, To’xtasinov Boburbek Yusufjon o’g’li**

Suv resurslarini boshqarishda zamonaviy texnologiyalar:qishloq xo‘jaligi uchun iims modelini ishlab chiqish...... ........ 89
**Fazilat Egamberganova Shuhratovna**

Raqamli texnologiyalar yordamida kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish ........ 93
**Ernaqulov Sunnatillo Nurali o‘g‘li**

Qurilish sanoati korxonalarini boshqarishning iqtisodiy mexanizmlari ........ 98
**Yembergenova Aynur Aydosbaevna**

Mahalliy budjetlar ijrosi to‘g‘risidagi hisobotlar va ularning axborot imkoniyatlarini oshirish masalalari ...... 104
**Abdulaziz Norquchqorov Ziyadullayevich**

Sirdaryo viloyatida investitsion faollikni oshirishda davlat va xususiy sektor hamkorligi ........ 110
**Mamatqulova Muxlisa Komiljon qizi**

Kichik biznes subyektlarining eksport salohiyatidan foydalanish darajasi va uni oshirish omillari ............. 115
**Umarkulov, Kodirjon Maxamadaminovich, To'xtasinov Boburbek Yusufjon o'g'li**

Soliq toʻlovchilarning majburiyatlari bajarilishini taʼminlashning gnoseologik asoslari xususida .................. 118
**Abdusherozov Abdullo Baxtiyorovich**

Nodavlat oliy taʼlim tashkilotlari faoliyatini tashkil etishning tashkiliy-huquqiy jihatlari ............................... 125
**Yaqubova Nodira Olim qizi**

Oʻzbekistonda toʻqimachilik eko-mahsulotlari bozorining rivojlanish imkoniyatlari ..................................... 130
**Nosirova Charos**

Uy-joy fondini boshqarish samaradorligini oshirishda zamonaviy sifat menejmenti tizimining oʻrni ............. 135
**Asadullina Nailya Ramilevna, Normurodov Sarvar Norboy o'g'li**

Axoli daromadlarining turmush farovonligiga taʼsiri ........................................................................ 142
**Berdibekov A.**

Raqamli iqtisodiyot sharoitda taʼlim xizmati sifatini oshirishni ekonometrik modellashtirish usullari ............ 148
**Axmedova Barno Abdiyevna**

Jahon mamlakatlarida chakana savdoni boshqarishning oʻziga xosligi va unda strategik menejment tizimi ........................................................................................................................................ 151
**Yaqubov Azizbek Gʻanibekovich**

Kichik tadbirkorlik faoliyatining rivojlanish tendensiyalari ................................................................... 156
**Amonov Mehriddin Oromiddinovich**

Geologiya korxonalarining investitsion samaradorligini oshirish yoʻllari .................................................... 163
**Oʻtamurodova Surayyo SHokirjon qizi**

Temir yoʻl transportini rivojlantirishdagi xorij tajribasi .......................................................................... 169
**Nasrullayev Nurbek Baxtiyarovich**

Hududlar iqtisodiyoti agrar sektori investitsion faolligining koʻrsatkichlar tizimi va ularning xususiyatlari .... 174
**S.J. Yangiboev**

Hududlarning soliq salohiyatini oshirishdagi mavjud muammolar va ularning yechimlari .......................... 181
**Sharipov Narzullo Gʻulomovich**

Uzoq muddatli aktivlar auditining tashkiliy va uslubiy jihatlarini takomillashtirish ....................................... 188
**Bakayev Xurshid Maxmudovich**

Применение искусственного интеллекта в оценке кредитных рисков................................................... 195
**Маликов Шохрух Шокирович, Неъматова Фарангиз Санжар кизи, Омонов Санжар Ғанишер ўғли, Гулмуродова Динора Акрам кизи, Камалов Шухрат Камалович**

Tashqi bozorlarda tovarlarning raqobatbardoshligini oshirishda zamonaviy marketingdan foydalanish ... 209
**Meliqulov Abduhalil Norinovich**

Tijorat banklari investitsiya faoliyatida yuzaga keluvchi risklar ............................................................ 215
**Joʻrayev Oʻktam Panji oʻgʻli**

Xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda xalqaro savdo shartnomalarining roli................................................... 219
**Xodjayev Jamshid Abduxakimovich**

Servislashgan jamiyatda avtoservis xizmatlarining oʻrni va ahamiyatini yoritishga qaratilgan ilmiy yondashuvlar ........................................................................................................................................ 223
**Shaymardanova Dildora Xaydarjon qizi**

Davlat budjetining ijtimoiy sohani rivojlantirishdagi oʻrni .................................................................... 230
**Qoʻziyev Shodiyor Qilichboy oʻgʻli**

Madaniy festivallar-turizmni rivojlantirish vositasi sifatida .................................................................. 234
**Xushnazarova Maxzuna Gulamdjanovna**

Xizmatlar sohasida innovatsion strategiyani shakllantirishning oʻziga xos jihatlari ..................................... 239
**Jamshid Abduxaliqovich Xolboyev**

Innovatsion tadbirkorlikning milliy iqtisodiyotdagi oʻrni ........ 244
**Fayziyev Shavkat Shaxobidinovich**

Managing Tourism in Fragile Ecosystems: A Case Study Approach ........ 251
Dilmurod Nasimov, Shahrizoda Sirojiddinova

Development of the Digital Financial Assets Market to Enhance Investment Activity ........ 258
**Shamshinur Yakubova**

Turizm sohasining investitsion jozibadorligi va uni oshirish yo'llari ........ 263
**Ayubov Ilyos Ilxomovich**

Qimmatli qogʻozlar bozorida risklarni boshqarish amaliyotini takomillashtirish ........ 268
**Otaxonov Saidaxror Ilhomjon oʻgʻli**

Oʻzbekiston hududlarining barqaror rivojlanishi: omillar va koʻrsatkichlar tahlili ........ 274
**Hojiyev Tal'at Toshpoʻlatovich**

Iqtisodchi va bugalterlarning jamiyatdagi o ʻrni va ahamiyati ........ 282
**Sohibova A'loxon Zafarjon qizi**

Kasbiy ta'lim tashkilotlarida oʻquvchilarni raqamli kompetensiyasini baholashning metodologik asoslari .. 286
**Maxkamova Zuxra Tursunpulotovna**

Sugʻurta faoliyati hisobining normativ-huquqiy asoslari ........ 292
**Kodirkulov Oybek Turdiboyevich**

Raqamli iqtisodiyot: qishloq xoʻjaligi ishlab chiqarishini ixtisoslashtirish va joylashtirish ........ 301
**Bazarov Nazirjon Sobirovich, Moʻminov Baxodir Orifjonovich**

Sport maktablaridagi yoqari sinf oʻquvchilarining chidamkorlikni rivojlantirishning ahamiyati ........ 306
**Qon'irbayev Dastan**

Международный опыт сельскохозяйственного налогообложения и возможности его применения в узбекистане ........ 311
**Салимов Шерзод Бахтиёрович**

Cleaning of Salt Water Using Reverse Osmosis ........ 316
**Kungiratbay Sharipov, Nurmanov Ma'ruf**

Aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy instrumentlar auditi uchun tavakkalchilikka asoslangan baholash mezonlarini takomillashtirish ........ 326
**Nuraliyev Behzod Baxtiyor oʻgʻli**

Turizm investitsion salohiyatiga ta'sir kuchlari va ularga yechim ........ 331
**Ayubov Ilyos Ilxomovich**

Korxonalarda nomoddiy aktivlarni hisobga olishda shaffoflikni ta'minlash va xorij tajribalaridan foydalanish istiqbollari ........ 335
**Rizakulov Abdurauf Abdimutalibovich**

Strengthening the Tourism Industry Through Education and Training: A Review of Global and Regional Strategies ........ 342
**Gʻaforova Zarina Otabek qizi**

Raqamli iqtisodiyotda telekommunikatsiya infratuzilmasining rivojlanish omillari va iqtisodiy samaradorligi tahlili (oʻzbekiston misolida) ........ 348
**Xazratov Abror Panjiyevich**

Smart tourism konsepsiyasining oʻzbekistonda joriy etilishi: infratuzilma, xizmatlar va raqamli innovatsiyalar tahlili ........ 352
**Abriev Zoirjon**

The Development of Tourism Management as a Significant Part of Economy in Uzbekistan ........ 358
**Toʻxtarova Feruzahon Yuldashevna**

Biologik aktivlarni iqtisodiy tahlil qilish turlari: metodologiyasi va amaliy qoʻllanilishi ........ 362
**Ziyayev Dilshodjon Salimjonovich**

Понятие и сущность денежного потока в системе финансового управления ........................................ 366
**Машарипова Шахло Адамбаевна**

Buxoro viloyat hududining urbanizatsiya konsepsiyasini ishlab chiqish ........................................................ 372
**Akramov Doniyor Rustam o'g'li, Usmonov Muradxan Saidmaxmudovich**

Интегрированный механизм оценки финансового состояния предприятия ........................................ 376
**Tajibayeva Kizlargul Ajiniyazovna**

Ecosystem Services Under Ecological Stress: the Case of the Former Aral Sea ........................................ 383
**Umidjan R. Nazarkulov**

O‘zbekistonda iqtisodiy ta’lim muammolarini virtual platformalar orqali bartaraf etish yo‘llari ..................... 388
**Jalolova Madina Shopo‘lat qizi**

Temir yo‘l transporti korxonalarida ishlab chiqarish salohiyatini rivojlantirish (“toshkent mexanika zavodi” aj misolida) ........................................................................................................................ 393
**Xudoyorova Mehrangiz**

Развитие инклюзивного образования на основе социального маркетинга и цифровизации сферы .. 400
**Адилова Зулфия Джавдатовна , Шоев Алим Халмуратович**

Qurilish jarayonlarini boshqarishning xorij tajribalari va ularning milliy investitsion-qurilish sohasiga transformatsiyasi ........................................................................................................................ 408
**Abduvaliyev Bekzod Muxiddin o‘g‘li**

Konsalidatsiyalashgan moliyaviy hisbotni tayyorlashni takomillashtirish...................................................... 414
**Xayitboyev Muhammadiy Israfilovich , Abduraimova Maftunaxon Axmatovna, Ovlaev Suhrob Temur o‘g‘lim , Yo‘lchiyev Oybek Ulug‘bek o‘g‘li**

Iqtisodiy-ekologik hududlarda pillachilik biznesining mazmuni va mohiyati.................................................. 419
**G‘oziyeva Aziza Abdusalomovna**

Yashil moliyalashuv: bank faoliyatidagi huquqiy asoslar va amaliy yondashuvlar....................................... 427
**Mirzaxmedova A. A.**

# YASHIL MOLIYALASHUV: BANK FAOLIYATIDAGI HUQUQIY ASOSLAR VA AMALIY YONDASHUVLAR

**Mirzaxmedova A. A.**
TDIU tayanch doktoranti

Annotatsiya: Har qanday moliyaviy islohot, ayniqsa yashil moliyalashuv singari strategik yo‘nalishlar, siyosiy jihatdan huquqiy asoslar bilan mustahkamlab borilishi lozim. Ushbu maqolada bank faoliyatida yashil moliyalashuvning o‘rni, uning huquqiy asoslari hamda amaliy yondashuvlari tahlil etilgan. O‘zbekiston tijorat banklarining ekologik loyihalarni moliyalashtirishdagi tajribalari xalqaro tajribalar — xususan Germaniya va Xitoy modeli bilan solishtirilgan. Shuningdek, milliy sharoitga mos takliflar ishlab chiqilgan holda, yashil moliyalashuvni rivojlantirishga xizmat qiluvchi huquqiy-institutsional takomillashtirish yo‘nalishlari ko‘rsatib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: yashil moliyalashuv, bank faoliyati, ESG standartlari, huquqiy asos, yashil kredit, ekologik moliya, barqaror rivojlanish.

Abstract: Financial reform — particularly in strategic directions such as green finance — must be reinforced by political commitment and a strong legal foundation. This paper analyzes the role of green financing in the banking sector, with a focus on its legal underpinnings and practical implementation. It examines the experience of commercial banks in Uzbekistan in funding environmental projects and compares it with international practices, notably those of Germany and China. The study presents policy recommendations and outlines ways to strengthen the legal and institutional frameworks for the development of green finance in the country.

Keywords: green finance, banking sector, ESG standards, legal basis, green credit, environmental finance, sustainable development.

Аннотация: Финансовая реформа, особенно такая стратегически важная, как зелёное финансирование, требует политической воли и надёжного правового обеспечения. В статье рассматривается роль зелёного финансирования в банковской системе, анализируются его правовые основы и практические подходы. Оценивается опыт коммерческих банков Узбекистана в финансировании экологических проектов и проводится сравнительный анализ с международной практикой — на примере Германии и Китая. Также предложены рекомендации по улучшению правовой и институциональной базы для устойчивого развития зелёных финансов в стране.

Ключевые слова: зелёное финансирование, банковский сектор, ESG стандарты, правовая база, зелёные кредиты, экологические финансы, устойчивое развитие.

## KIRISH

Bugungi kunda iqlim o‘zgarishi, ekologik inqiroz va tabiiy resurslarning kamayib borayotgani har bir sohadan mas’uliyatli yondashuvni talab qilmoqda. Bu borada banklar — ya’ni moliyaviy resurslarni boshqaradigan va yo‘naltiradigan asosiy institutlar sifatida — ekologik barqarorlikni ta’minlashda muhim ro‘l o‘ynashi mumkin. Shu nuqtada “yashil moliyalashuv” tushunchasi dolzarb bo‘lib, banklar uchun faqat ijtimoiy mas’uliyat emas, balki yangi imkoniyatlar eshigini ham ochmoqda. Biroq banklar bu borada faol bo‘lishi uchun huquqiy asoslar muhim ro‘l o‘ynaydi. Aynan shuning uchun banklarda yashil operatsiyalarni amalga oshirishni tartibga soluvchi qonunchilik va normativ-huquqiy baza mazkur yo‘nalishda muhim tayanch hisoblanadi.

O‘zbekiston ham o‘z taraqqiyot strategiyasida yashil iqtisodiyotni rivojlantirishga katta e’tibor qaratmoqda. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 18-avgustdagi PQ–283-son qarori bilan “2023–2030-yillarda “Yashil” iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi” tasdiqlandi[1]. Mazkur hujjatda bank-moliya sohasida yashil loyihalarni moliyalashtirishni kengaytirish, tijorat banklari uchun tegishli moliyaviy rag‘batlar

1 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 18-avgustdagi PQ–283-son qarori “2023–2030-yillarda “Yashil” iqtisodiyotga o‘tish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”

yaratish va huquqiy mexanizmlarni takomillashtirish bo'yicha qator vazifalar belgilangan. Shu bilan birga, dunyoning ko'plab rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlari bu borada qanday qonunchilik choralarini ko'rmoqda va ularning tajribasi qanday natijalar berayotganini tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

## ADABIYOTLAR TAHLILI

So'nggi yillarda bir qator rivojlanayotgan mamlakatlar yashil yoki barqaror bank faoliyatini tartibga soluvchi qonunchilikni joriy etdi yoki bu jarayon ustida ish olib bormoqda. Ushbu tashabbuslar 2030-yil Kun tartibini amalga oshirish hamda 2015-yil dekabr oyida o'tkazilgan Parij iqlim konferensiyasida 195 mamlakat tomonidan qabul qilingan kelishuvlarni moliyalashtirish bilan bog'liq bugungi kundagi muammolar nuqtayi nazaridan juda dolzarbdir. Ularning maqsadi moliyaviy institutlarni o'z faoliyati va kreditlash amaliyotida ekologik va ijtimoiy omillarni hisobga olishga jalb qilishdir. Bu qonunlar barqaror rivojlanishni rag'batlantirish, uglerod izlarini kamaytirish va iqlimga oid moliyaviy xatarlarni kamaytirishga qaratilgan[2].

Garchi ushbu qonunlar mamlakatlarning siyosatiga qarab farq qilsada, ularda quyidagi umumiy mavzular mavjud:

yashil loyihalarni moliyalashtirishni targ'ib qilish,
ekologik va ijtimoiy xatarlarni boshqarish,
barqaror biznes amaliyotlarini joriy etish.

Yashil bank faoliyatiga oid ko'rsatmalar, eng avvalo, xususiy va institutsional kapitalni (masalan, pensiya jamg'armalaridan) yashil investitsiyalarga jalb qilish orqali yashil bank faoliyati va iqlimga oid investitsiyalarni rag'batlantirishga yordam berishi mumkin. Bu esa investitsiya imkoniyatlari va manbalarini diversifikatsiya qilishga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, yashil tartibga solish tizimi resurslar oqimini atrof-muhitga zarar yetkazuvchi iqtisodiy faoliyatlardan iqlimga qulay, ekologik jihatdan toza faoliyatlarga yo'naltirishda yordam beradi va barqaror hamda yashil bizneslarni kengaytirishga ko'maklashadi. Shu tariqa, korxonalarga investitsiya kiritish imkonini yaratgan holda, iqlim o'zgarishi bilan bog'liq muammolarni hal qilishga hissa qo'shish orqali ko'plab rivojlanayotgan mamlakatlarda zarur bo'lgan uzoq muddatli ishlab chiqarish transformatsiyasini amalga oshirishni yengillashtiradi.

Moliyaviy nazorat organlari yashil bank faoliyatiga oid ko'rsatmalarni ishlab chiqishda turli vositalardan foydalanish imkoniyatiga ega. Yashil yoki barqaror bank faoliyatini tartibga soluvchi huquqiy me'yorlar boshqaruv yoki kreditlash sohasida aniq va majburiy ko'rsatmalarni taqdim etadi. Biroq ko'plab holatlarda "regulyatsiya" (tartibga solish) atamasi umumiy ko'rsatmalar ma'nosida ham ishlatiladi va u quyidagi uch turdagi vositalarni o'z ichiga olishi mumkin: regulyatsiya (qonunchilik), siyosat (policy) va yo'riqnoma (guideline).

Siyosat (policy) — bu ma'lum bir moliyaviy faoliyat bo'yicha qat'iy va majburiy ko'rsatmadir.

Yo'riqnoma (guideline) esa siyosat yoki regulyatsiyani qanday amalga oshirish kerakligini tushuntirib beruvchi qo'llanmadir.

Ko'pincha yo'riqnomalar minimal talablar va tavsiyalarni taqdim etadi, shuningdek, ular tartibga solish yoki siyosatga rioya etish uchun zarur deb hisoblanadi.

Masalan, Pokiston dastlab yashil bank faoliyati bo'yicha yo'riqnomalar ishlab chiqishni boshlaydi. Bu yo'nalish keng qabul qilingach, ular bu jarayonni yanada qat'iylashtirish maqsadida siyosatlar va/yoki regulyatsiyalarni bosqichma-bosqich joriy etishni rejalashtirgan[3].

2 darajali iqtisodiyotga o'tishni moliyalashtirishda banklarning ro'li (2-darajali iqtisodiyot — bu iqlim o'zgarishini cheklash maqsadida ishlab chiqilgan iqtisodiy model bo'lib, u sanoatgacha bo'lgan davrga nisbatan global harorat oshishini 2°C dan oshirmaslik uchun uglerod chiqindilarini kamaytirish va ekologik barqarorlikni ta'minlashga yo'naltirilgan):

Banklar atrof-muhit siyosatidagi muhim o'zgarishlarni moliyalashtirishda asosiy rol o'ynaydi, chunki ular o'zlarining kredit berish, investitsiya kiritish va maslahat xizmatlari orqali kapital oqimlarini ta'minlashda yuqori o'ringa ega. Shuningdek, ular taraqqiyotda muhim bo'lgan innovatsion texnologiyalarni moliyalashtirishda ishtirok etadi.

Banklar barqaror faoliyatni moliyalashtirishda ishtirokini oshirayotgan bo'lsada, xususiy kapitalni barqaror iqtisodiyotga o'tishni qo'llab-quvvatlash uchun ularni jalb qilish borasida hali ko'p ishlar qilinishi kerakligi tan olinadi.

Banklarning barqaror moliyalashtirishdagi ishtiroki yuzasidan jamoatchilik muhokamasi davom etmoqda. Aksariyat tadqiqotchilar bank sektorini barqaror taraqqiyotning asosiy harakatlantiruvchi kuchi sifatida ko'rmoqda va ularni barqaror loyihalarni moliyalashtirishda faolroq ishtirok etishga chaqirmoqda. Shu bilan birga, ba'zilari bank tizimining qisqa va o'rta muddatli yo'nalishi barqaror rivojlanishning uzoq muddatli xarak-

2 The Paris Agreement | UNFCCC https://share.google/vLAVEpMM1y3sdkZ1E
3 https://www.idos-research.de/uploads/media/WG_3_PB_LINDENBERG___VOLZ.PDF

teriga mos kelmasligini ta'kidlab, banklarning ro'li cheklangan deb hisoblaydi. Ularning fikricha, bu balansda muddat nomuvofiqligini (maturity mismatch) keltirib chiqarishi mumkin va boshqa moliyaviy barqarorlik xavflarini yuzaga keltiradi.

Bugungi bank tizimini tartibga soluvchi me'yoriy-huquqiy baza hali to'liq darajada tizimli ECC (Atrof-muhit, Iqlim va Karbon) xavflarini qamrab ololmayapti. Bizning fikrimizcha, buning asosiy sababi – butun dunyo bo'yicha yagona taksonomiya va ma'lumotni oshkor qilish tizimining mavjud emasligidir.

Tadqiqot metodologiyasi

Mavzuni ilmiy o'rganish, mantiqiylik, tahlil va tadqiq etish jarayonida tizimli tahlil, statistik tahlillardan foydalanilgan. Maqolada, yashil iqtisodiyot, uni rivojlantirish uchun huquqiy jarayonlar, yashil iqtisodiyotni rivojlantirishda banklarning ro'li hamda tahlil qilishda e'tiborga olinishi lozim bo'lgan jihatlarni tadqiq etish tendensiyalarini ishlab chiqish va uning iqtisodiy tizimdagi ahamiyatiga mos ravishda ilmiy taklif hamda amaliy tavsiyalar berildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Bugungi kunda yashil moliyalashuv tijorat banklarining barqaror rivojlanishga bo'lgan hissasini oshiruvchi asosiy vositaga aylanmoqda. Ushbu tahlilda O'zbekiston tijorat banklarining yashil moliya amaliyotlariga qanchalik jalb etilganligi, mavjud huquqiy asoslar va xalqaro tajriba asosida olib borilayotgan amaliy yondashuvlar o'rganildi.

1. Huquqiy asoslar tahlili

So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasi yashil iqtisodiyotni rivojlantirish borasida bir qator muhim huquqiy hujjatlarni qabul qildi. Jumladan:

1-jadval : "Yashil moliyalashuvning huquqiy asoslari (O'zbekiston tajribasi)"[4]

| Huquqiy hujjat | Qisqacha mazmuni | Ahamiyati |
|---|---|---|
| PQ-283-son qaror (2023-yil 18-avgust) | Banklar faoliyatida ekologik mezonlarni inobatga olish | Yashil loyihalarni moliyalashda tartib va talablarni belgilaydi |
| "Yashil iqtisodiyot to'g'risida"gi qonun loyihasi | Atrof-muhitni muhofaza qilishga qaratilgan moliyaviy mexanizmlar | Yashil moliya uchun qonunchilik bazasini kengaytiradi |
| O'zbekiston Markaziy banki ko'rsatmalari | Barqaror moliyalashtirish yo'nalishlari | Banklar uchun tavsiya va normativ ko'rsatmalarni belgilaydi |

2. Tijorat banklarining amaliy yondashuvlari

O'zbekistondagi ayrim tijorat banklari, masalan, "Ipoteka Bank", "Asaka Bank" va "Agrobank" singari yirik moliyaviy institutlar, ekologik loyihalarni moliyalashga alohida e'tibor qaratmoqda. Quyidagi grafik ushbu banklarning 2021–2024 yillarda yashil kreditlar ulushi qanday o'sayotganini ko'rsatadi:




1-rasm: 2021-2024 yillarda banklar bo'yicha yashil kreditlar ulushi[5]

4 Muallif tomonidan tayyorlandi

5 Muallif tomonidan banklarning ochiq statistik ma'lumotlari asosida tuzilgan.

Grafikdan ko‘rinib turibdiki, 2021-yildan 2024-yilgacha O‘zbekistondagi uchta yirik bank — Ipoteka Bank, Agrobank va Asaka Bank — yashil kreditlash ko‘rsatkichlarini izchil oshirib bormoqda. Ipoteka Bank doimiy ravishda eng yuqori o‘sishni namoyon etgan bo‘lib, 2021-yildagi 2.1% dan 2024-yilda 7.5% ga yetgan. Bu bank ekologik loyihalarni moliyalashni ustuvor yo‘nalish sifatida belgilaganini ko‘rsatadi. Agrobank ham muhim siljishlarni amalga oshirgan — ayniqsa 2022 va 2023 yillarda 2.5% dan 4.3% ga oshgan ko‘rsatkichlar bunga misoldir. Bu bank qishloq xo‘jaligi sohasida barqarorlikka urg‘u bermoqda. Asaka Bank nisbatan sekinroq o‘sish sur’atiga ega bo‘lsa-da, 2021-yildagi 0.8% ko‘rsatkich 2024-yilda 5.1% ga yetib borgan.

Bu holat O‘zbekiston bank sektorining yashil moliyalashtirishga bo‘lgan qiziqishi va amaliy harakatlarining ortib borayotganidan dalolat beradi. Biroq bu ko‘rsatkichlar hali xalqaro standartlar darajasiga yetmagan va yanada chuqurlashtirilgan siyosiy-iqtisodiy yondashuvlarni talab qiladi.

3. Xalqaro tajriba bilan solishtirma tahlil

Jahon banki va Osiyo taraqqiyot banki tomonidan taklif qilinayotgan moliyaviy instrumentlar, masalan “Green Bond” (yashil obligatsiyalar) yoki “ESG rating” tizimlari O‘zbekistonda amalda hali keng joriy etilmagan.

2-jadval: Xalqaro tajribada yashil moliyalashtirish siyosatlarining solishtirma tahlili[6]

| Davlat | Yashil bank vositalari | Amaldagi yondashuv |
|---|---|---|
| Germaniya | Yashil obligatsiyalar, ESG | Banklar majburiy hisobot taqdim etadi |
| Xitoy | Yashil kreditlar siyosati | Hukumat kafolatli kredit dasturlari |
| O‘zbekiston | Yashil kreditlar tajribalari | Ixtiyoriy, rag‘batlantiruvchi yondashuv |

Ushbu tahlildan ko‘rinadiki, Germaniya va Xitoy yashil moliyalashtirishda ilg‘or tajribaga ega bo‘lib, ular bu siyosatni turli yondashuvlar orqali amalga oshirmoqda. Germaniya yondashuvi — bozor tamoyillari, standartlashtirish va shaffoflikka asoslangan. Xitoy esa davlatning faol ishtiroki va moliyaviy vositalar orqali yashil loyihalarni qo‘llab-quvvatlaydi.

O‘zbekiston esa bu jarayonda hali boshlang‘ich yo‘ldan bormoqda. Huquqiy-me’yoriy baza va banklar faoliyatida ekologik mezonlarni joriy etish bo‘yicha dastlabki qadamlar tashlangan. Shu sababli, xorij tajribasi o‘rganilib, milliy sharoitga moslashtirilgan mexanizmlar ishlab chiqilishi maqsadga muvofiq bo‘ladi.

O‘zbekiston moliya sektorida yashil moliyalashuv yo‘nalishi hozircha yangi bosqichda bo‘lishiga qaramay, bu soha iqtisodiyotning barqarorligi va ekologik xavfsizligini ta’minlashda muhim vositaga aylanishi mumkin. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, banklar tomonidan ekologik loyihalarni moliyalashtirishga qiziqish ortib bormoqda, biroq bu jarayonni tizimli va barqaror qilish uchun huquqiy va institutsional bazani mustahkamlash talab etiladi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Yashil kreditlash amaliyoti O‘zbekistonda ixtiyoriy asosda amalga oshirilmoqda va hali keng qamrovga ega emas. Xalqaro tajribalar shuni ko‘rsatadiki, yashil moliyalashuv samaradorligi uchun ESG standartlari, moliyaviy rag‘batlar va hukumat kafolatlari katta ahamiyatga ega. O‘zbekiston bank sektori ushbu yondashuvlarni milliy sharoitga moslashtirgan holda joriy qilishi zarur.

Shuningdek, mavjud huquqiy hujjatlar — jumladan, Prezident qarorlari, Markaziy bank ko‘rsatmalari va bank siyosatlarida yashil moliyalashtirishga doir ayrim normalar mavjud bo‘lsa-da, ular ko‘proq tavsiya xarakteriga ega bo‘lib, amaliy natijalarga olib kelish salohiyati hali to‘liq ishga tushirilmagan.

Takliflar

1. Yashil moliyalashuvga oid qonunchilikni takomillashtirish:

“Yashil iqtisodiyot to‘g‘risida” qonunni tez fursatda qabul qilish va unda banklar uchun aniq mas’uliyat va majburiyatlarni belgilash zarur.

2. ESG (Environmental, Social, Governance) standartlarini joriy etish:

Banklar faoliyatida ekologik va ijtimoiy mas’uliyatni baholash mezonlarini ishlab chiqish va hisobot berish majburiyatini bosqichma-bosqich joriy etish tavsiya etiladi.

3. Yashil obligatsiyalar bozorini rivojlantirish:

Yashil moliyalashtirishni kengaytirish uchun moliyaviy instrumentlar, xususan yashil obligatsiyalar (green bonds) chiqarishni huquqiy va moliyaviy jihatdan qo‘llab-quvvatlash zarur.

4. Markaziy bank va tijorat banklarining strategik hamkorligini kuchaytirish:

Markaziy bank tomonidan yashil moliya uchun maxsus regulyativ normalar ishlab chiqilishi va tijorat banklariga amaliy ko‘rsatmalar berilishi lozim.

6 Jahon banki (World Bank, 2023), China Green Finance Committee (2022), BaFin Germany va O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining ochiq tahliliy hisobotlari asosida muallif ishlanmasi.

5. Xalqaro moliyaviy institutlar bilan aloqalarni kengaytirish:

Yashil moliyalashtirish bo'yicha Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki, UNDP kabi tashkilotlar bilan hamkorlikda grantlar, kafolatlar va texnik yordam jalb qilinishi mumkin.

6. Bank xodimlari va qaror qabul qiluvchilar uchun malaka oshirish kurslari:

Yashil kreditlar, risklarni baholash, ESG hisobotlari va ekologik moliyaviy vositalar bo'yicha treninglar yo'lga qo'yilishi muhim.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 18-avgustdagi PQ–283-son qarori "2023–2030-yillarda "Yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"
2. The Paris Agreement | UNFCCC https://share.google/vLAVEpMM1y3sdkZ1E
3. https://www.idospresearch.de/uploads/media/WG_3_PB_LINDENBERG___VOLZ.PDF
4. World Bank (2023). Green Finance and Climate-Resilient Banking. World Bank Group Report. https://www.worldbank.org
5. China Green Finance Committee (2022). China Green Finance Progress Report.
6. BaFin Germany (Federal Financial Supervisory Authority) (2021). Guidelines on Sustainable Finance and ESG Disclosure.
7. https://www.bafin.de

muhandislik
& iqtisodiyot
ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta’limga oid ilmiy-amaliy jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir Alibekov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2025. № 6**

© Materiallar ko‘chirib bosilganda “Muhandislik va iqtisodiyot” jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma’sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

“Muhandislik va iqtisodiyot” jurnali 26.06.2023-yildan
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S–5669245 reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.
**Litsenziya raqami: №095310**.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod**
**tumani 15-mavze 19-uy**

+998 93 718 40 07 https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal t.me/yait_2100